

# "O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/Elon-27022025>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 20-mart kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy ("O'zkimyosanoat" AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

## **KUN TARTIBI:**

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish va yangi kuzatuv kengashi a'zosini saylash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2025-yil 27-fevral holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reyestri 2025-yil 14-mart holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 20-mart kuni soat 14:00 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

**"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi**